

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**



TASDIQLAYMAN»
Urganch davlat universiteti rektori v.v.b
prof. S.U.Xodjaniyozov
2025 yil

“FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI”

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 400 000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta‘lim sohasi: 420 000 – Huquq
Bakalavriat yo‘nalishi: 60420100–Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo‘yicha)

Urganch 2025

Mazkur fan dasturi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti O'quv-uslubiy kengashining 2025 yil 29 08 dagi 1-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy ishlar bo'yicha prorektor:  prof. S.U.Xodjaniyozov

O'quv-uslubiy boshqarmasi

boshlig'i:



dots. G.R. Matlatipov

Mazkur fan dasturi "Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar" fakulteti Kengashining 2025 yil 28 08 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (1-sonli bayonnoma).

"Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar"

fakulteti dekani:



prof. I.S.Abdullayev

Mazkur fan dasturi "Huquq" kafedrasining 2025 yil 27 08 dagi yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlash uchun tavsiya qilingan (1-sonli bayonnoma).

Huquq kafedrasini mudiri:



dots. v/b. U.Q. Hajiyev

Fan/modul kodi FPH3A6	O'quv yili 2025-2026	Semestr 5	ECTS - Kreditlar 6		
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4		
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI		60	120	180

I. FANNING MAZMUNI

"Fuqarolik protsessual huquqi" fanini o'qitishdan maqsad – talabalarga fuqaro va tashkilotlarning Konstitutsiyada belgilangan huquq va qonuniy manfaatlarini odil sudda himoya qilish, ularda sud-huquq tizimida olib borilayotgan isloxotlarning mazmun-moxiyatini tushunishga, ularda fuqarolik huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizoli ishlarni sudda ko'rib chiqishga, shu bilan birga taraflarni sudga qadar yarashuv, kelishuv institutlarini joriy etishni, suddan tashqari himoya qilishning xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish, moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash amaliyotini shakllantirish bo'yicha ko'nikma, bilim va malakalarini hosil qilish, fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilishga doir qonunchilik va sudga oid protsessual hujjatlarni o'rgatishdan iboratdir.

Fanning vazifasi – Fuqarolik protsessual huquqi fanining asosiy tushunchalarini va tamoyillarini va fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari, ularning bosqichlari haqida izchil nazariy bilim berish, sudlar tomonidan moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash borasida yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarning sabablarini o'rganish, sud amaliyotini va sudga oid statistik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ularning oldini olish choralarini ko'rish kabi masalalarni ilmiy-nazariy o'rgatishdan iborat.

II. ASOSIY NAZARIY QISM (MA`RUZA MASHG`ULOTLARI)

III. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

I-modul. Fanning nazariy mashg`ulotlari mazmuni.

Fanning nazariy asoslari.

1-mavzu: Fuqarolik protsessual huquqiga kirish.

Sud orqali himoyalash huquqi. O'zbekiston Respublikasining fuqarolik protsessual huquqi tushunchasi va pediti. Fuqarolik protsessining tizimi. Fuqarolik protsessual huquqining konstitutsiyaviy, fuqarolik, oila, mehnat, ma'muriy huquq, iqtisodiy protsessual va jinoyat protsessual huquqi hamda boshqa huquq sohalari bilan aloqadorligi. Fuqarolik sud ishlarini yuritish tushunchasi va uning vazifalari. Fuqarolik protsessining manbalari. Fuqarolik sud ishlarini yuritish turlari. Fuqarolik protsessining bosqichlari.

2-mavzu: Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari.

Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari tushunchasi va mohiyati. Fuqarolik protsessual huquqi prinsiplari tizimi va tasnifi. Fuqarolik protsessual huquqining tashkiliy-funktional prinsiplari: odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshirilishi, sudyalarni saylash va tayinlash, fuqarolik ishlarining yakka tartibda va hay'at tomonidan ko'rilishi, sudyalarning mustaqilligi va ularning faqat qonunga bo'ysunishi, qonun va sud oldidagi tenglik, sud ishlari yuritiladigan til, sudda ish ko'rishning oshkoraligi prinsipi. Fuqarolik protsessual huquqining funktsional prinsiplari: ishlarni amaldagi qonun hujjatlari asosida hal qilish; tараflarning tortishuvi va teng huquqliligi; sudda ishni ko'rishning bevositaligi va ogzakiligi prinsipi.

3- mavzu: Fuqarolik ishlarining taalluqliligi va sudlovligi.

Taalluqlilik tushunchasi va turlari. Fuqarolarning va tashkilotlarning sub'ektiv huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi idoralar. Fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilash qoidalari va umumiy mezonlari. Fuqarolik ishlarini sudga taalluqliligi haqidagi umumiy qoidalar. Fuqarolik, mehnat, oila, turar-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi. Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat, arizalar bo'yicha yuritiladigan ishlarining sudga taalluqliligi. Alohida tartibda ko'riladigan ishlarining sudga taalluqliligi. Bir-biri bilan bogliq bir qancha talablarning sudga taalluqliligi.

Fuqarolik ishlarining sudlovligi tushunchasi va uning taalluqlilikdan farqi. Sudlovlikning turlari: turdosh va hududiy. Fuqarolik ishlarining sudlovligini jinoyiy ishlarni sudlovligidan farqi. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlovlik haqidagi qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlari.

4- mavzu: Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari.

Taalluqlilik tushunchasi va turlari. Fuqarolarning va tashkilotlarning sub'ektiv huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qiluvchi idoralar. Fuqarolik ishlarining taalluqliligini belgilash qoidalari va umumiy mezonlari. Fuqarolik ishlarini sudga

taalluqliligi haqidagi umumiy qoidalar. Fuqarolik, mehnat, oila, turar-joy va boshqa huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning sudga taalluqliligi. Davlat organlari va boshqa organlar, shuningdek mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyat, arizalar bo'yicha yuritiladigan ishlarining sudga taalluqliligi. Alohida tartibda ko'riladigan ishlarining sudga taalluqliligi. Bir-biri bilan bogliq bir qancha talablarning sudga taalluqliligi.

Fuqarolik ishlarining sudlovligi tushunchasi va uning taalluqlilikdan farqi. Sudlovlikning turlari: turdosh va hududiy. Fuqarolik ishlarining sudlovligini jinoyiy ishlarni sudlovligidan farqi. Ishni bir suddan boshqa sudga o'tkazish asoslari va tartibi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlovlik haqidagi qoidalarga rioya qilmaslik oqibatlari.

Fuqarolik protsessual huquqi munosabatlarning sub'ekt-lari va ularning tasnifi. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar tushunchasi, tarkibi hamda ularning huquq va majburiyatlari. Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar, ularning protsessual huquqiy holati.

Fuqarolik protsessida taraflar tushunchasi va turlari. Taraflarning protsessual huquq va burchlari. Fuqarolik protsessida birgalikda ishtirok etishning maqsadi, asoslari va uning turlari. Ishga daxldor bo'lmagan taraflar tushunchasi va ularni almashtirish tartibi. Protsessual huquqiy vorislik tushunchasi, asoslari va protsessga kirishish tartibi.

Fuqarolik protsessida uchinchi shaxslar tushunchasi va ularning turlari. Mustaqil talab bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar, ularning ishga kirishish asoslari, protsessual tartibi, ularning protsessual huquq va majburiyatlari. Mustaqil talab bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar, ularni ishga jalb qilish (kirishish) asoslari, protsessual tartibi, protsessual huquq va burchlari. Ishga tiklash to'grisidagi ishlar bo'yicha uchinchi shaxslarning sudga ishtirok etish xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va O'zbekiston Respublikasining "Prokuratura to'grisida"gi (yangi tahriri) Qonuniga asosan fuqarolik protsessida prokurorning vazifalari. Prokurorning birinchi instanstiya sudida ishtirok etish asoslari. Fuqarolik protsessida prokuror ishtirokining shakllari: boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun ariza bilan sudga murojaat etish; boshqa shaxslar tashabbusi bilan qo'zgatilgan ishni ko'rishda boshidan ishtirok etish. Prokurorning fuqarolik protsessidagi huquq va burchlari. Prokurorning birinchi instanstiya, apellyastiya, kassastiya va nazorat instanstiyalari sudida ishtiroki. Sud qarorlarini ijro qilish bosqichida prokuror ishtiroki.

Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protes-sida ishtirokining ahamiyati. Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qiluvchi davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etish asoslari va maqsadi. Davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning fuqarolik protsessida ishtirok etish shakllari: qonunda nazarda

tutilgan hollarda boshqa shaxslarning huquqlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish uchun sudga ariza bilan murojaat etish; o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish, fuqarolar va davlatning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish yuzasidan xulosalar berish uchun maqsadida prosessda ishtirok etish. Davlat boshqaruvi idoralarning ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslar (prokuror, uchinchi shaxslar, ekspert, vakil va prosessning boshqa ishtirokchilari)dan farqi.

5-mavzu: Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar.

Suddagi dalillar va isbotlash vositalarining tushunchasi. Isbotlash predmeti. Isbotlash va dalillarni taqdim qilish majburiyati Isbotlashdan ozod qilish asoslari. Dalillarning daxldorligi va isbotlash vositalariga yo'l qo'yilishi. Dalillarga baxo berish. Taraflar o'rtasida isbotlash burchini taqsim-lash. Dalillarning turlari: shaxsiy va ashyoviy: boshlangich va unga bogliq bo'lgan xosila to'g'ri va egri, ogzaki va yozma dalillar. Isbotlash vositalarining turlari. Taraflar va uchinchi shaxslarning tushuntirishlari. Guvoh ko'rsatuvlari. Yozma dalillar va ularning turlari. Ashyoviy dalillar va ularning yozma dalillardan farqi. Ekspertiza, sud ekspertizasini tayinlash tartibi, uni sud majlisida va suddan tashqarida o'tkazish uchun asoslar. Ekspertning xulosasi va uni mazmuni. Fuqarolik prosessida mutaxassis va uning ekspertdan farqi. Dalillarni ta'minlash uchun asoslar. Sud topshiriqlari. Sud topshiriqlarini berish va ularni bajarishning prosessual tartibi.

6- mavzu: Fuqarolik protsessida da'vo.

Sudda da'vo ishlarini yuritish tartibida ko'riladigan ishlar. Da'vo tushunchasi. Da'voning elementlari. Da'vo turlari (ijro va e'tirof etish da'volari). Da'voga bo'lgan huquq va da'vo qo'zgatishga bo'lgan huquq. Da'vo talablarning asosini yoki predmetini o'zgar-tirish, da'vo talablaridan voz kechish. Da'voni birlashtirish va ajratish. Da'voga qarshi javobgar huquqlarini himoya qilishning prosessual vositalari. Da'voga qarshi e'tiroz bildirish (moddiy va prosessual huquqiy). Qarshi da'vo, qarshi da'voni qo'zgatish tartibi. Da'voni ta'minlash tushunchasi, da'voni ta'minlash choralari. Jinoiy ishlarda fuqaroviy da'volar.

7-mavzu: Sud xarajatlari. Protsessual muddatlar. Protsessual majburlov choralari.

Fuqarolik prosessida sud xarajatlari tushunchasi va turlari. Davlat boji va uning turlari: oddiy va proporsional davlat bojlari. Da'voni bahosi. Ish yuritish bilan bogliq bo'lgan chiqimlar. Sud xarajatlarini to'lashdan ozod qilish va uning asoslari. Taraflar o'rtasida sud xarajatlarini taqsimlash. Sud xarajatlarini qaytarish uchun asoslar. Sud jarimalari. Sud jarimalarini solish asoslari va tartibi.

Fuqarolik prosessida muddatlar tushunchasi va ahamiyati. Fuqarolik prosessida muddatlarning turlari: qonunda belgilangan prosessual muddatlar; sud tomonidan tayinlangan muddatlar. Protsessual muddatlarni hisoblash, to'xtatib turish, kechiktirish va tiklash, o'tkazib yuborish oqibatlari. Protsessual majburlov choralarining turlari. Majburiy keltirish. Ogohlantirish va sud majlisi zalidan chiqarib yuborish. Sud jarimalarini solish tartibi. Sud jarimasini undirish.

8-mavzu: Fuqarolik ishini qo'zg'atish, tayyorlash va sudda muhokama qilish. Birinchi instansiya sudining hujjatlari.

Sudga murojaat qilishning asosiy talablari va unga rioya qilmaslik oqibatlari. Da'vo arizalari, uning tuzilishi va mazmuni. Arizani harakatsiz qoldirish. Arizani qabul qilish uni rad qilish asoslari va uni rasmiylashtirish tartibi. Fuqarolik ishini qo'zgatish-ning huquqiy oqibatlari.

Ishni sudda ko'rishga tayyorlashning tushunchasi va ahamiyati. Ishni sudda ko'rishga tayyorlashning maqsadi va vazifalari. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash bo'yicha sudya tomonidan amalga oshiriladigan prosessual harakatlarning hajmi va mazmuni. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash muddatlari. Ishni sudda ko'rishga tayinlash. Sud chaqiriq-lari va sud xabarlari. Sudga chaqirish to'g'risidagi sud chaqiruv xatining mazmuni. Sudga chaqirish to'g'risidagi chaqiruv xatini topshirish tartibi. Sud chaqiruv xatini qabul qilib olishdan bosh tortish oqibatlari. Javobgarni qidirish uchun asoslar.

Sudda ish ko'rish tushunchasi va uning ahamiyati. Fuqarolik ishlari bo'yicha sud majlisi va uning qismlari. Sud majlisining tayyorlov qismi. Ishni mazmunan ko'rish qismi. Sud muzokaralari. Ishning mohiyati bo'yicha prokurorning fikri. Ish yuzasidan sudning hal qiluv qarorini chiqarish va uni e'lon qilish. Ish ko'rishni keyinga qoldirish. Ish yuritishni to'xtatish. Arizani ko'rmasdan qoldirish. Hal qiluv qarorini chiqarmasdan turib ish yuritishni tugatish. Ish yuritishni tugatish va arizani ko'rmay qoldirishning huquqiy oqibatlari va farqi. Sud majlisining bayonnomasi.

Sud qarorlarining tushunchasi va turlari. Sud hal qiluv qarorlarini sud ajrimlaridan farqi. Sudning hal qiluv qarorining tushunchasi va ahamiyati. Sudning hal qiluv qaroriga nisbatan qo'yiladigan talablar. Hal qiluv qarorining mazmuni. Hal qiluv qarorini chiqargan sud tomonidan undagi kamchiliklarini tuzatish. Hal qiluv qarorini tushuntirish. Qo'shimcha hal qiluv qarori. Sudning hal qiluv qarorini qonuniy kuchi. Darhol ijro qilinadigan sud hal qiluv qarorlari. Hal qiluv qarorining ijrosini kechiktirish va uni bo'lib-bo'lib ijro etish. Birinchi instanstiya sudi ajrimlari tushunchasi. Ajrimning turlari (mazmuni, shakli, chiqarish tartibi). Sud ajrimlarining qonuniy kuchi. Xususiy ajrimlar. Ularning mazmuni va ahamiyati.

9-mavzu: Buyruq tartibida ish yuritish. Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish. Sirdan ish yuritish.

Fuqarolik prosessida buyruq tartibida ish yuritishning huquqiy tabiati. Fuqarolik prosessida buyruq tartibida ish yuritish tushunchasi va ahamiyati. Sud buyrugini chiqarish bo'yicha talablar. Buyruq tartibida ish yuritish bosqichlari. Buyruq tartibida ish yuritishni qo'zgatish tartibi va asoslari. Sud buyrugini chiqarish. Sud buyrugini bekor qilish. Sud buyrugini ijro etish. Iqtisodiy prosessida sud buyrugini berish tartibi, asoslari va uning fuqarolik prosessida buyruq tartibida ish yuritishdan farqli jihatlari.

Sirdan ish yuritish tushunchasi va uning ahamiyati. Sirdan hal qiluv qarori chiqarish shartlari va tartibi. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorining mazmuni. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlarini qayta ko'rish to'g'risidagi arizalar, ularning mazmuni va qayta ko'rish uchun asoslar. Sirdan chiqarilgan hal qiluv qarorlari

ustidan shikoyat berish, protest keltirish uchun asoslar. Sirtidan chiqarilgan hal qiluv qarorini qonuniy kuchi va ijrosi.

10-Mavzu: Sud tomonidan da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladigan ishlar.

O'zbekistonda oila qonunchiligining rivojlanishi. Nikohdan ajratish to'grisidagi ishlarning taalluqligi va sudlovligi. Nikohdan ajratish to'grisidagi ishlarni qo'zgatish, ishni sudda ko'rishga tayyorlash. Er-xotinni yarashtirishni kelishuv bitimidan farqi. Nikohdan ajratish to'grisidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan hal qiluv qarorini mazmuni va uning huquqiy oqibatlarini. Sud xarajatlari va ularni taqsimlash. Nikohdan ajratish to'grisidagi ishlarni nikohni haqiqiy emas deb topish haqidagi ishlardan farqi.

Aliment undirish to'grisidagi ishlarning taalluqligi. Aliment to'lashning ixtiyoriy tartibi (kelishuv) tushunchasi. Aliment undirish to'grisidagi ishlarning sudlovligi. Ish qo'zgatish. Ishda ishtirok etuvchi shaxslar. Ishni sudda ko'rishga tayyorlash. Aliment undirish to'grisidagi ishlarni sudda muhokama qilish. Sud hal qiluv qarori va uni ijro etish masalalari. Aliment miqdorini kupaytirish, kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod qilish uchun asoslar.

O'zbekiston Respublikasi oila qonunchiligida otalikni belgilash to'grisidagi ishlarni yuritish. Musulmon huquqida otalikni belgilash masalalari. Otalikni belgilash to'grisidagi ishlarning taalluqligi va sudlovligi. Otalikni da'vo tartibida belgilash. Otalikni belgilash to'grisidagi ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar. Otalikni alohida tartibda belgilash masalalari. Sud hal qiluv qarori va ularni ijro etish.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi hamda Mehnat kodeksida fuqarolarning mehnat huquqini himoya qilishning muhim jihatlari. Mehnat nizolarining tushunchasi va turlari. Mehnatga oid ishlarning taalluqligi va sudlovligi. Mehnatga oid ishlarda taraflar va ularning prosessual huquqiy holati. Ishga tiklash masalalari bo'yicha uchinchi shaxslarning ishtirok etish xususiyatlari. Mehnat nizolarini sudda qo'zgatish va ishni sudda ko'rishga tayyorlash. Mehnat nizolarini sud muhokama qilish. Mehnat ishlari yuzasidan sudning hal qiluv qarori va ularning mazmuni. Hal qiluv qarorlarini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari.

O'zbekiston Respublikasining Uy-joy kodeksida fuqarolarning turar joyga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining kafolatlanishi. Uy-joyga oid ishlarning taalluqligi va sudlovligi. Uy-joyga oid ishlarda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning prosessual huquqiy holati. Xususiy uy-joy fondidan foydalanish, tasarruf etish, egalik qilish bilan bogliq nizolar va ularni hal etishning prosessual xususiyatlari. Davlat uy-joy fondlaridan foydalanish bilan bogliq nizoli ishlarni hal etish xususiyatlari. Uy-joyga oid nizoli ishlar yuzasidan sudning hal qiluv qarori. Hal qiluv qarorlarini ijro etishning o'ziga xos xususiyatlari.

11-mavzu: Alohida tartibda ish yuritish.

Alohida tartibda ish yuritish tushunchasi va mohiyati. Sud tomonidan alohida ish yuritish tartibida ko'riladigan ishlar. Alohida tartibda yuritiladigan ishlarni sud ishlarini yuritishning boshqa turlaridan farqi. Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash to'grisidagi ishlar. fuqaroni bedarak yo'qolgan deb

topish va fuqaroni o'lgan deb e'lon qilish to'grisidagi ishlar. Fuqaroni muomala layoqati cheklangan yoki muomalaga layoqatsiz deb topish to'grisidagi ishlar. Mol-mulkni (ashyoni) egasiz deb topish to'grisidagi ishlar. Taqdim etuvchiga deb berilgan hujjatlar yo'qolgan taqdirda, ular bo'yicha huquqlarni tiklash to'grisidagi ishlar (chaqirib ish yuritish). Gayriixtiyoriy tartibda psixiatriya stasionariga yotqizish. Ariza berish tartibi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar. Sud hal qiluv qarori va unga qo'yilgan talablar.

12-mavzu: Hakamlilik sudining hal qiluv qarorlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritish.

Hakamlilik sudlarining fuqarolarning huquqlarini huquqiy himoya qilishda tutgan o'rni va ahamiyati. Hakamlilik sudlari tomonidan hal etiladigan nizolar. Hakamlilik sudyalari va hakamlilik sudining tarkibi. Nizoni hakamlilik sudida hal qilish bilan bogliq xarajatlari. Hakamlilik muhokamasi. Hakamlilik sudining hujjatlari. Hakamlilik sudining hal qiluv qarori yuzasidan nizolashish. Hakamlilik sudining hal qiluv qarorini ijro etish.

13-mavzu. Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlarining, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki.

Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning fuqarolik protsessidagi huquqiy holati. Chet el fuqarolari va tashkilotlari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtirokidagi nizolarning taalluq-liligi va sudlovligi. Chet davlat sudlarining sudga doir topshiriqlarini ijro etish va O'zbekiston Respublikasi sudlarining chet davlat sudlariga topshiriq bilan murojaat qilishi. Chet davlat sudlari va arbitrajlarining hal qiluv qarorlarini ijro etish.

14-mavzu: Sud hujjatlarini qayta ko'rish.

Appelyatsiya tartibida ish yuritishning mohiyati va ahamiyati. Sudning qarorini apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida bekor qilish uchun asoslar. Apellyatsiya tartibida shikoyat berish (protest keltirish) huquqi. Apellyatsiya shikoyatini (protestini) ko'rishning prosessual tartibi. Appelyatsiya instanstsiyasi sudining vakolatlarini. Apellyatsiya instanstsiyasi sudining ajrimini. Birinchi instanstsiya sudi ajrimlari ustidan shikoyat berish va protest keltirish.

Kassatsiya tartibida ish yuritishning mohiyati va ahamiyati. Kassatsiya shikoyati (protesti)ning mazmuni. Kassatsiya tartibida keltirilgan protestlarni ko'rib hal qilishning prosessual tartibi. Kassatsiya instanstsiya sudining vakolatlarini. Kassatsiya tartibida qabul qilinadigan hujjatlar. Kassatsiya tartibida sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarini qayta ko'rishni apellyatsiya tartibida ko'rishdan (ob'ekti, sub'ekti, prosessual tartibi va vakolatlarini bo'yicha) farqi.

Yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarni qayta ko'rish uchun asoslar. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha sud qarorlarini qayta ko'rish predmeti. Ishni qayta ko'ruvchi sudlar. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha ishni qaytadan ko'rishning prosessual tartibi. Yangi ochilgan holatlar bo'yicha ish ko'rishning apellyatsiya, kassatsiya va nazorat tartibida qayta ko'rishdan farqi.

15- mavzu: Sud hujjatlarining ijrosi.

Ijro ishlarini yuritish tushunchasi va uning ahamiyati. Ijro ishlarini yuritish tartibini belgilovchi qonunchilik va uning rivojlanishi. Majburiy ijro qiluvchi organlar. Ijro ishlarini yuritishda sudning tutgan o'rimi. Ijro ishlarini yuritish ishtirok etuvchi shaxslar. Ijro ishini yuritish uchun asoslar. Ijro hujjatlari. Ijro hujjatlarini majburiy ijroga berish muddati va ushbu muddatning uzilishi va to'xtalishi. Ijro ishlarini yuritish bosqichlari va uning umumiy qoidalari. Ijro ishin qo'zgatish. Majburiy ijro etish choralari. Sud hujjatlarini ijro etmaganlik uchun javobgarlik. Undiruv navbati. Qarzdorning mulkini aniqlash va uni xatlash. Aliment undirish to'grisidagi qarorlarni ijro qilish xususiyatlari. Uy-joydan kuchirish to'grisidagi ishlar bo'yicha sud chiqargan hal qiluv qarorini ijro qilish xususiyatlari. Mehnatga oid ishlar bo'yicha hal qiluv qarorini ijro qilish xususiyati. Ijro qilingan sud hal qiluv qarorlari, ajrim va qarorlarini qaytarma ijrosi.

Ma'ruza mavzularining soatlar bo'yicha taqsimlanishi

No	Ma'ruza mavzulari	Dars soatlari hajmi
<i>5-semestr</i>		
1.	Fuqarolik protsessual huquqiga kirish.	2
2.	Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari.	2
3.	Fuqarolik ishlarining taalluqliligi va sudloviligi.	2
4.	Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokehilari.	2
5.	Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar.	2
6.	Fuqarolik protsessida da'vo.	2
7.	Sud xarajatlari. Protsessual muddatlar. Protsessual majburlov choralari.	2
8.	Fuqarolik ishini qo'zg'atish, tayyorlash va sudda muhokama qilish. Birinchi instansiya sudining hujjatlari.	2
9.	Buyruq tartibida ish yuritish. Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish. Sirtidan ish yuritish.	2
10.	Sud tomonidan da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladigan ishlar.	2
11.	Alohida tartibda ish yuritish.	2
12.	Hakamlilik sudining hal qiluv qarorlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritish.	2
13.	Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlarining, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki.	2
14.	Sud hujjatlarini qayta ko'rish.	2
15.	Sud hujjatlarining ijrosi.	2
Jami		30

III. SEMINAR MASHG'ULOT MAVZULARI MASHG'ULOTLAR

Seminar mashg'ulot mavzulari mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar yechish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimini oshirish, masalalar yechish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

Mashg'ulotlar faol interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Seminar mashg'ulot mavzularining soatlar bo'yicha taqsimlanishi

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Dars soatlari hajmi
5-semestr		
1.	Fuqarolik protsessual huquqiga kirish.	2
2.	Fuqarolik protsessual huquqining prinsiplari.	2
3.	Fuqarolik ishlarining taalluqliligi va sudloviligi.	2
4.	Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari.	2
5.	Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar.	2
6.	Fuqarolik protsessida da'vo.	2
7.	Sud xarajatlari. Protsessual muddatlar. Protsessual majburlov choralari.	2
8.	Fuqarolik ishini qo'zg'atish, tayyorlash va sudda muhokama qilish. Birinchi instansiya sudining hujjatlari.	2
9.	Buyruq tartibida ish yuritish. Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish. Sirdan ish yuritish.	2
10.	Sud tomonidan da'vo ishini yuritish tartibida ko'riladigan ishlar.	2
11.	Alohida tartibda ish yuritish.	2
12.	Hakamlik sudining hal qiluv qarorlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritish.	2
13.	Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlarining, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki.	2
14.	Sud hujjatlarini qayta ko'rish.	2
15.	Sud hujjatlarining ijrosi.	2
	Jami	30

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni tashkil etish:

“Fuqarolik protsessual huquqi” fanidan mustaqil ta'limga 120 soat ajratilgan. Mustaqil ta'lim ma'ruza, seminar mashg'ulot mavzulari mavzulari asosida tashkil etiladi.

1. Darslik va o'quv qo'llanmalarining boblari va mavzularini o'rganish. Bunday tashkiliy shakl birinchi kurs talabalari bo'lganligidan o'tilgan mavzular bo'yicha mustaqil bilim olishda konspekt usulidan foydalaniladi.

2. Tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruza qismini o'zlashtirish. Bunda o'qituvchi asosiy materialning bavon qilinishiga alohida ahamiyat berishi lozim. Tarqatma materiallar hajmi har bir ma'ruza uchun 5-6 sahifa bo'lishiga erishish kerak. Bunday ish natijalari reyting nazoratining muvofiq bosqichlarida tekshiriladi.

3. Fanning boblari va mavzulari ustida ishlash. Bu maxsus va ilmiy adabiyot (monografiya va maqolalar), referatlar, bitiruv malakaviy ishlarini bajarish chog'ida amalga oshiriladi. Uning natijalari ham reyting nazoratida aks etadi.

4. Fanlar bo'yicha adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish, qo'shimcha adabiyotlar ustida ishlash hamda ularni o'rganish. Bu ish ham barcha semestrlarda amalga oshiriladi va reyting tizimida baholanadi.

5. Talabalarining ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq holda fanning muayyan boblari va mavzularini chuqur o'rganish. Mustaqil ishning bu shakli talabalar tomonidan o'quv jarayonida o'zlashtirib borilishi tavsiya etiladi.

6. Faol o'qitish metodidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari. Talabalar tomonidan ta'lim, fan va texnologiyalarning dolzarb muammolari bo'yicha tayyorlangan faol o'qitish metodlarini (munozara, aqlni charxlash, bumerang, klaster v.b.) qo'llagan dars mashg'ulotlari nazarda tutiladi.

7. Avtomatlashtirilgan o'rganuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash. Bu esa ma'ruza mashg'ulotlari doirasida ham Amaliy mashg'ulot mavzulari mashg'ulotlarga tayyorgarlik doirasida ham olib borilishi mumkin.

8. O'quv rejasidagi ayrim fanlar bo'yicha eksternat.

9. Masofaviy ta'lim. Elektron darslikdan foydalanish tavsiya etiladi.

Talaba mustaqil ta'limni tashkil etishda quyidagilardan foydalanadi:

- darslik va o'quv-uslubiy qo'llanmalardan foydalanib o'quv rejasi mavzularini o'rganish;

- maxsus va davriy-ilmiy uslubiy adabiyot manbalaridan foydalanib bilimlarini mustahkamlash;

- yangi texnika, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

№	Mustaqil ta'lim mavzulari	Dars soatlari hajmi
1.	Fuqarolik protsessual huquqi fanining tushunchasi, tizimi va prinsiplari.	2
2.	Fuqarolik ishlarining taalluqliligi va sudovliligi.	2
3.	Fuqarolik sud ishlarini yuritish ishtirokchilari.	2
4.	Fuqarolik protsessida isbotlash va dalillar.	2
5.	Fuqarolik protsessida da'vo.	2
6.	Sud xarajatlari.	2
7.	Protsessual majburlov choralari va protsessual muddatlar.	2
8.	Fuqarolik ishlarini qo'zg'atish va sud muhokamasiga tayyorlash.	2
9.	Sud muhokamasi.	2
10.	Birinchi instansiya sudining hal qiluv qarori va ajrimlari.	2
11.	Soddalashtirilgan tartibda ish yuritish.	2
12.	Sirdan ish yuritish.	2
13.	Buyruq tartibida ish yuritish.	2
14.	Oilaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari (nikohdan ajratish, aliment undirish, otalikni belgilash).	2
15.	Mehnatga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari	2
16.	Uy-joyga oid nizoli ishlarni sudda ko'rishning protsessual xususiyatlari.	2
17.	Alohida tartibda ish yuritish.	2
18.	Hakamlik sudining hal qiluv qarorlari bilan bog'liq bo'lgan ishlarni yuritish.	2
19.	Fuqarolik protsessida chet el fuqarolari va tashkilotlarining, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning ishtiroki.	2
20.	Apellyatsiya instantsiyasi sudida ish yuritish.	2
21.	Kassatsiya instantsiyasi sudida ish yuritish.	2

22.	Sud hujjatlarini taftish tartibida qayta ko'rish bo'yicha ish yuritish.	2
23.	Qonuniy kuchga kirgan sud hujjatlarini yangi ochilgan holatlar bo'yicha qayta ko'rish.	2
24.	Sud hujjatlarining ijrosi.	2
25.	Fuqarolik sud ishlarini yuritish vazifalari.	2
26.	Sud orqali himoyalanih huquqi.	2
27.	Fuqarolik ishi.	2
28.	Fuqarolik ishining yakka tartibda va hay'atda ko'rilishi.	2
29.	Sudyani va protsessning boshqa ishtirokchilarini rad qilish.	2
30.	Ishda ishtirok etuvchi shaxslar.	2
31.	Ishda ishtirok etuvchi shaxslarning huquq va majburiyatlari.	2
32.	Fuqarolik protsessual huquq layoqati.	2
33.	Fuqarolik protsessual muomala layoqati.	2
34.	Tarflarning protsessual huquq va majburiyatlari.	2
35.	Protsessda birgalikda ishtirok etish.	2
36.	Ishga daxldor bo'lmagan javobgarni almashtirish.	2
37.	Protsessual huquqiy vorislik.	2
38.	Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qiluvchi uchinchi shaxslar.	2
39.	Nizo predmetiga nisbatan mustaqil talablar bilan arz qilmaydigan uchinchi shaxslar.	2
40.	Ishda prokurorning ishtiroki.	2
41.	Boshqa shaxslarning huquqlarini himoya qilayotgan davlat boshqaruvi organlari, tashkilotlar va ayrim fuqarolarning protsessda ishtirok etishi.	2
42.	Odil sudlovni amalga oshirishga ko'maklashuvchi shaxslar.	2
43.	Sudda vakillik.	2
44.	Da'voni ta'minlash.	2
45.	Sudning ish yuritishni to'xtatib turish majburiyati.	2

46.	Sudning ish yuritishni to'xtatib turish huquqi.	2
47.	Ish yuritishni to'xtatib turish vaqti.	2
48.	Ish yuritishni to'xtatib turishning huquqiy oqibatlari.	2
49.	Ish yuritishni tiklash.	2
50.	Arizani ko'rmasdan qoldirish asoslari.	2
51.	Arizani ko'rmasdan qoldirish tartibi va oqibatlari.	2
52.	Ish yuritishni tugatish.	2
53.	Sud xabarnomalari va chaqiruvlari.	2
54.	Yarashtirish tartib-taomillari.	2
55.	Sud buyrug'iga oid umumiy qoidalar.	2
56.	Sud buyrug'ini berish bo'yicha talablar.	2
57.	Ishlarni sud muhokamasiga tayyorlash vazifalari.	2
58.	Ishni sud muhokamasiga tayyorlash muddatlari.	2
59.	Sudyaning ishni sud muhokamasiga tayyorlash bo'yicha harakatlari.	2
60.	Fuqarolik ishlarini ko'rish va hal qilish muddatlari.	2
	Jami	120

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan uni **taqdimot (SLAYD)** qilish tavsiya etiladi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

-huquqiy ko'nikmalar va metodologiya moduli predmeti, vazifalari va o'zlashtirish metodlari.

- yuridik kadrlardakasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati.
- shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish maqsadi va mohiyati. swot va pest tahlillari.

- yurist karerasi bilan bog'liq maqsadlarni aniqlashg'tirish.

- shaxsiy rivojlanish rejasini tuzish.

- huquqshunosning harakatlar taktikasi va strategiyasi.
- vaqtning huquqshunos hayoti va mehnat faoliyatidagi ahamiyati.
- omma oldidagi nutq va uning ta'sirchanligini ta'minlovchi omillar.
- notiqlik uslublari va yuridik nutq turlari **bilishi** ;
- mantiqiy fikrlashning omillari, talab va mezonlari.
- yurist faoliyatida mantiqiy fikrlashning roli.
- fikrni mantiqiy ifoda etish usullari va talablari.
- yuridik faoliyatda deduktiv, induktiv va analogiya bo'yicha xulosa chiqarishning ahamiyati.
- yuridik argumentatsiya **ko'nikmalariga ega bo'lishi**;
- yuristlar jamoasi hamda jamiyatda ijobiy shaxsiy imijni shakllantirish usullarini o'zlashtirish;
- huquqiy etika va huquqshunoslar kasb axloqiga oid talablarni bilish;
- talabning mustaqil ta'lim olishi, fikrlashi, o'zlashtirayotgan fanlari va bo'lg'usi mehnat faoliyatiga ijodiy yondashishiga ko'maklashish **malakalariga ega bo'lishi**;
- yuridik kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiyalash jarayonida faol ishtirok etish;
- yuridik ta'limi tizimida bugungi davr talabi nuqtai nazaridan normativ-huquqiy hujjatlar asosida o'quv va tarbiya jarayonini tashkil etish;
- jamiyatni yuksaltirish va ta'lim-tarbiya jarayonlariga milliy manfaat nuqtai nazaridan xulosalar chiqara olish;
- demokratik taraqqiyot va jamiyat rivojining mazmun-mohiyatini tushuntirish hamda ushbu jarayonning faol ishtirokchisiga aylanish;
- tizimli - faoliyat tavsifidagi **kompetensiyalariga ega bo'lishi lozim.**

VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

- ma`ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- Amaliy mashg'ulot mavzularilar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlar qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil

mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishini topshirish

VIII. Talabalar bilimni baholash

Talaba bilimni baholash O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2018 yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'iga ilova qilingan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish baholash tizimi to'g'risidagi nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi. (NIZOM -<https://lex.uz/docs/3916793>).

IX. O'QUV SOATLARI

Ushbu fan 1 semestr davomida o'qitiladi va o'quv soatlari quyidagicha:

Semestr	Haftalar soni	Ma'ruza	Seminar	Jami auditoriya soati	Mustaqil ta'lim	Jami yuklama	Kredit miqdori
5	30	30	30	60 (haftasiga 4 soat)	120	180	6

X. NAZORAT TURLARI

1.1. Har bir semestrda fandan talabalar bilimni nazorat qilish oraliq va yakuniy nazorat turlarini o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

1.2. Oraliq nazorat semestrning 11-12 haftalarida talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv mashg'ulotlari davomida 1 marta o'tkaziladi.

1.3. Talabaning amaliy mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi fan o'qituvchisi tomonidan baholab boriladi. Baholash **III bo'limda** nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, talabaning amaliy (Amaliy mashg'ulot mavzulari) mashg'ulotlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarishi, shuningdek uning ushbu mashg'ulotlardagi faolligi Universitetning Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida baholash orqali olib boriladi va u quyidagilardan iborat:

- tizimda fanning har mavzusi bo'yicha belgilangan test yoki amaliy topshiriqlarini bajaranganligi asosida baholanadi;
- mustaqil ish natijasini belgilangan muddatgacha tizimning "Mustaqil ish topshiriqi" bo'limiga qistiradi, baholash **III-bo'limda** nazarda tutilgan mezonlar asosida amalga oshiriladi.

1.4. Talabani oraliq nazorat turi bo'yicha baholashda 1 ta nazariy savol (shu mavzuga doir misol ham beriladi) ga yozma ish javobi bahosi (**III bo'limda** nazarda tutilgan mezonlar asosida) hamda uning o'quv mashg'ulotlari davomida olgan baholari o'rtachasi hisoblanib yaxlitlab qo'yiladi.

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, Talabani oraliq nazorat turi quyidagicha baholanadi:

- 30 ta nazariy va amaliy test savollariga Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida javob berish natijalari;
- semestr davomida 1.3 banddagi topshiriqlarni bajarish baholari hisobga olinib "2", "3", "4" va "5" bilan umumlashtirib baholanadi.

1.5. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash (**III bo'limda** nazarda tutilgan mezonlar asosida) maqsadida 3 ta savol berish orqali og'zaki shaklda o'tkaziladi:

- 1 savol: nazariy
- 2 savol: nazariy
- 3 savol: amaliy

Agar o'quv jarayoni masofali shaklida bo'lsa, Yakuniy nazorat turi semestr yakunida ushbu fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini

o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida 30 ta test savollari berish orqali Moodle (<http://dl.urdu.uz>) tizimida baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish ushbu shakli kafedra tomonidan belgilanadi.

XI. TALABALAR BILIMINI BAHOLASH MEZONLARI

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;
- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;
- talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;
- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

XII. FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi [Matn]. – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2023 y. – 112 b.
2	O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent: Adolat, 2025.
3	O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. – Toshkent, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. Rasmiy nashr. Adolat, 2025.
4	O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – Toshkent, Adolat, 2025.
5	O'zbekiston Respublikasining “Sudlar to'g'risida” gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 2001-yil, 1-2-son, 10-modda.
6	O'zbekiston Respublikasining “Prokuratura to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 2001-yil, 9-10-son, 168-modda.
7	O'zbekiston Respublikasining “Notariat to'g'risida”gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi 1997-yil, 2-son, 42-modda.
8	O'zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijroetish to'g'risida”gi Qonuni. (o'zgartish va qo'shimchalari bilan) //O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Axborotnomasi, 2001-yil, 9-10-son, 169-modda.
9	O'zbekiston Respublikasining “Hakamlik sudlari to'g'risida” gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2006-yil, 42-son, 416-modda.
10	O'zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi - https://lex.uz/uz/docs/-6333240 .
11	Shoraxmetov SH.SH. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik protsessual kodeksiga sharhlar. – Toshkent, TDYUI, 2010.
12	Kommentariy k Grajdanskomu protsessual'nomu kodeksu Respubliki Uzbekistan. –

	Tashkent, Adolat, 2016.
13	Xabibullayev D.Yu. Fuqarolik protsessual huquqi (savollar va javoblar) . – Toshkent: TDYU, 2025. – 300 b.
14	Fuqarolik protsessual huquqi Darslik. Z.N.Esanova – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2022-y. – 328 bet.
15	Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi – Toshkent: Yuridik adabiyotlar publish, 2025-y. – 400 bet.
16	Fuqarolik protsessual huquqi. Darslik. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi. Toshkent, 2022-y. – 464 bet.
17	“2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
18	Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022 — 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғриси”даги Фармони //URL: https://lex.uz/docs/5841063
19	“Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958 sonli Farmoni.
20	“Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
21	“Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi PF-5106 sonli Farmoni.
22	“Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli Qarori.
23	Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutq. Toshkent: O'zbekiston, 2016-56 b.
24	Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza, 2017-yil 14-yanvar. Toshkent: O'zbekiston, 2017. 104 b.
25	Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.- B.455.
Internet saytlari	
26	www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali. http://www.library-tsul.uz . TDYU elektron kutubxonasi. http://www.lex.uz http://www.legislature.ru http://www.juristlib.ru http:// www.ziyonet.uz http:// www.pravo.uz